

8. Umarov, O., & To'xtanazarova, M. (2024). MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 37-40.
9. Qodirjon o'g'li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
10. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
11. Kamoldinovna, S. Y. (2024). TURIZMDA MAHSULOT VA BOZORNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH. University Research Base, 906-909.
12. Исмоилов, Б. М. (2025, January). Давлат харидларини ривожланишига таъсир этувчи омиллар. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 2, No. 2, pp. 33-39).
13. Ismoilov, B. (2024). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT XARIDLARIDAGI ISHTIROKI:(Farg'ona viloyati misolida). QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 133-135.
14. Yormonqulova, N. (2024). IQTISODIY O'SISH OMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10(10), 109-112. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.922>
15. Umidjon, J. (2024). MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI. University Research Base, 273-276. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/514>

TURIZM SOHASINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sultonova Yulduzxon Kamoldinovna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

sultonovayulduzxon66@gmail.com

Nabiyeva Yulduzxon

Qo'qon universiteti TZ-1-23 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmning mazmuni, uning ta'riflari va rivojlanish tarixi haqida so'z yuritilgan. Turizmning mohiyati, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflar asosida tushuntiriladi. Shuningdek, turizm industriyasi, uning tarkibiy qismlari va xizmat ko'rsatish tarmog'ining ahamiyati ta'kidlanadi. Maqolada Buyuk Ipak yo'lining turizmga ta'siri, temir yo'llar va aviatsiyaning rivojlanishi bilan turizmning kengayishi, Tomas Kuk kabi shaxslarning zamonaviy turizmga qo'shgan hissasi haqida ham ma'lumot berilgan. Umuman olganda, turizmning tarixiy taraqqiyoti va uning global iqtisodiyotdagi o'рни yoritilgan.

Kalit so'z: sayohat-turizmi, buyuk ipak yo'li, tur, xafsiz pul, Tomas Kuk.

Abstract: This article discusses the content of tourism, its definitions and the history of its development. The essence of tourism, its economic and social significance are explained based on the definitions given by various scholars. The importance of the tourism industry, its components and the service network is also emphasized. The article also provides information on the impact of the Great Silk Road on tourism, the expansion of tourism with the development of railways and aviation, and the contribution of figures such as Thomas Cook to modern tourism. In general, the historical development of tourism and its role in the global economy are covered.

Keywords: travel-tourism, Great Silk Road, tour, safe money, Thomas Cook.

Аннотация: В статье рассматривается содержание туризма, его определения и история его развития. Сущность туризма, его экономическое и социальное значение раскрываются на основе определений, данных различными учеными. Подчеркивается также важность туристической отрасли, ее составляющих и сферы услуг. В статье также представлена информация о влиянии Великого шелкового пути на туризм, расширении туризма с развитием железных дорог и авиации, а также о вкладе таких личностей, как

Томас Кук, в современный туризм. В целом освещается историческое развитие туризма и его роль в мировой экономике.

Ключевые слова: путешествия-туризм, Великий Шелковый путь, тур, безопасные деньги, Thomas Cook.

Kirish: Turizm fransuzcha tour soʻzidan olingan boʻlib, sayr-sayohat maʼnosini anglatadi. Oʻzbekiston Respublikasining “Turizm toʻgʻrisida”gi Qonunida turizm tushunchasiga quyidagicha taʼrif berilgan: “Turizm – jismoniy shaxsning doimiy istiqomat qiladigan joyidan sogʻlomlashtirish, maʼrifiy, kasbiy-amaliyyoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq toʻlanadigan faoliyat bilan shugʻullanmagan holda uzogʻi bilan bir yil muddatga joʻnab ketishi (sayohat qilishi)”.

Turizm - bu odamlarning boʻsh vaqtlarida oʻz doimiy turar joylaridan boshqa mamlakat yoki oʻz mamlakatlari ichida taʼassurot va dam olish, sogʻliqni tiklash, mehmondorchilik, bilim olish yoki kasbiy amaliy maqsadlarida sayohat kilishlari, lekin borgan joylarida pul bilan ragʻbatlantiriladigan ish bilan shugʻullanmaydilar.

Jahon xoʻjaligining globallashuvi va integratsiyalashuvi kuchayib borayotgan bir davrda turizm tushunchasining mohiyatini toʻgʻri talqin etish va uning mohiyatini toʻgʻri anglab yetish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu haqda xorijiy va mahalliy olimlarning fikri turli-tuman boʻlib, turlicha qarash va konsepsiyalar mavjud. Jumladan, A.Yu.Aleksandrova “Kishilarning doimiy turarjoylari va ishlaridan farqlanuvchi joylarga yetib kelishi va joylashishi vaqtida yuzaga keladigan munosabatlar va hodisalar yigʻindisi turizmdir”, - deb taʼkidlab oʻtgan boʻlsa, Yu.V.Tishukov esa “Turizm –mamlakat fuqarolari, xorijlik fuqarolar vafuqarolikka ega boʻlmagan shaxslarning doimiy turarjoylaridan sogʻlomlashtirish, tanishish, kasbiy-ishbilarmonlik, sport, diniy va boshqa maqsadlarda vaqtincha yashab turgan mamlakatidagi haq toʻlanadigan faoliyat bilan band boʻlmagan holda vaqtinchalik sayohatlaridir”, - degan fikrni bildiradi.

Shuni taʼkidlab oʻtish joizki, ayrim xorijiy va mahalliy olimlar turizmning jadal taraqqiyoti alohida tarmoq holidagi industriyadir, yaʼni turizm industriya sifatida ham tan olinmoqda.

Yu.V.Tishukov oʻz risolasida “Turizm industriyasi – bu mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obʼyektlari, dam olish obʼyektlari va vositalari, tanishish, ishbiarmonlik, sogʻlomlashtirish, sport va boshqa maqsadlardagi obʼyektlar, turoperatorlik va turagentlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, shuningdek, ekskursiya xizmatlari va gid-tarjimonlar xizmatini namoyon etuvchi tashkilotlar toʻplamidir”, -deb eʼtirof etgan boʻlsa, M.B.Birjakov esa “Turistik xizmat – turizm maqsadlari, turistik xizmatning yoʻnalishi va tabiati, turistik mahsulotga javob beruvchi, umum insoniy axloq va tartib tamoyillariga mos keluvchi ekskursant yoki turistning ehtiyojlarini taʼminlash va qanoatlantirishga yoʻnaltirilgan xizmat koʻrsatish sohasidagi maqsadlarga yoʻnaltirilgan harakatlar yigʻindisidir”, - degan fikrni bildiradi.

Shuningdek, turizm tarmogʻini tashkil etish va boshqarish nuqtai nazardan tahlil etgan N.I.Kabushkina va A.P.Durovicha “Turizm ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida kishilarning doimiy turar joylari va ishlaridan farqlanuvchi joylarga yetib kelishi va joylashishi vaqtida yuzaga keladigan hamda ularning mehnat faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan munosabatlar va hodisalar yigʻindisidir”, - deb taʼrif berib, “Turizm industriyasi – bu ishlabchiqarishni taʼminlovchi moddiy ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohasidagi muassasa, tashkilot, va korxonalar yigʻindisi, turistik mahsulotni taqsimlash, ayirboshlash va isteʼmol qilish, turistik resurslarni oʻzlashtirish va foydalanish, turizmning moddiy-texnika bazasini yaratish hisoblanadi”, - deb koʻrsatadi. S.A.Bistrov va M.G.Voronsova esa “Turistik xizmatlar bozori – bu maʼlum vaqt va maʼlum joyda oʻziga xos turistik tovarlar va xizmatlar savdo-sotiq jarayonlarini taʼminlash uchun talab va taklifni birlashtiruvchi umumiy-iqtisodiy hodisa hisoblanadi”, -deb yozadi. Y.N.Ilina esa, turistik bozor asosan toʻrtta asosiy unsurlarning iqtisodiy oʻzaro taʼsir etish tizimida, yaʼni turistik talab, turistik mahsulot taklifi, narx va raqobatda namoyon boʻladi. Zamonaviy turistik bozor yetarli darajada rivojlangan boʻlib, boshqa bozorlar kabi u sotuvchining bozoridan (bunda ishlab chiqaruvchi qanday mahsulot, qanday miqdorda va qayerda sotishni hal etadi) xaridorning

bozorigacha rivojlanadi. Xaridor qanday mahsulot, qancha hajmda va qanday narx bo'yicha ishlab chiqaruvchi mahsulot ishlab chiqarishini belgilaydi,- deb ko'rsatadi.

Bundan tashqari turizmga turli davrlarda turlicha yondashilgandir. Bu borada bir qator tushunchalarni keltirish maqsadga muvofiq deb bilamiz. Internasional Webster lug'atida turning ma'nosi quyidagicha ifodalangan: ish, zavq olish, o'qish uchun qilinadigan sayohat va bu sayohatlar mobaynida turli xil joylarni ziyorat qilishdan va rejalashtirilgan sayohat dasturidan yuzaga keladigan jarayon tur deb ataladi. Sayohatchi ma'lum muddatdan so'ng o'z yurtiga qaytadi. Etimologik xatoga yo'l qo'ymaslik va bu hodisaning chegaralarini belgilash maqsadida turizm so'zini aniq ta'riflashga harakat qilingan, chunki u tadqiqot va tahlil qilishda; statistik ma'lumotlarni to'plashda; qonuniy va ma'muriy normativ hujjatlarni ishlab chiqishda, shuningdek ular bilan ishlashda; turizmning iqtisodiy-ijtimoiy mexanizmni belgilashda muhim kasb etadi.

Olimlardan xususan turizmga bergan soddagina ta'rifi, bu sohaning ilmiy poydevori, deb hisoblangan "ajnabiylarning bir joyga qilgan sayohatlaridan tarkib topgan va davomli istiqomat qilish, pul ishlashni maqsad qilmasdan, vaqtincha tunab qolishlaridan yuzaga keladigan munosabatlar majmui – bu turizmdir".

Bizning fikrimizcha, turizm – bu kishilarni o'zlarining doimiy turar joylaridan biron bir mamlakatga vaqtinchalik yoki o'z mamlakati hududidan boshqa biron bir joyga bo'sh vaqtida rohatlanish va xordiq chiqarish, sog'lomlashtirish, tanishish yoki kasbiy-ishbilarmonlik maqsadlarida, lekin yetib kelgan joyida haq to'lanadigan mehnat faoliyati bilan band bo'lmagan holda vaqtincha joylashtirish demakdir. Shuningdek, turizm- bu davomli yashaydigan, ishlaydigan va muhim ehtiyojlarni qondiradigan joylardan tashqariga qilinadigan sayohatdir. Tunash vaqtinchalik zaruriy bir ehtiyojdir. Sayohatga chiqqan va tunab qolgan kishi, ma'lum bir vaqtdan so'ng o'zi yashaydigan joyga qaytadi. Sayohatga chiqqan va vaqtincha tunaydigan kishilar asosan turizm korxonolari tomonidan taklif qilinadigan mahsulot va xizmatlarni talab kilishadi. Bu faoliyatlari mobaynida turli xil voqea, hodisalar va munosabatlar yuzaga keladi. Yoki, turizm bu kishilarning doimiy yoki uzoq muddatli turarjoyi hisoblanmaydigan va ularning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan joylarga safariga taalluqli munosabatlar, aloqa va hodisalar yig'indisi hisoblanadi. Biz turizm industriyasini mehmonxona va boshqa joylashtirish maskanlari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish shahobchalari, dam olish ob'yektlari va vositalari, ishbiarmonlik, sog'lomlashtirish, sport va boshqa maqsaddagi ob'yektlar, turoperatorlik va turagentlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, shuningdek, ekskursiya xizmatlari va gid-tarjimonlik xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar yig'indisi sifatida e'tirof etgan holda oldingi ta'riflarga qo'shilamiz.

Turizm – boyish va hordiq chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha holatlar uchun, ya'ni kosmik kemada uchishdan tortib plyajgacha yetib borish bilan bog'liq harakatdir. Fuqarolarning doimiy turar joylaridan sog'lomlashtirish, tanishish, kasbiy-ishbilarmonlik, sport, diniy va boshqa maqsadlardagi, haq to'lanadigan faoliyat bilan band bo'lmagan holdagi vaqtinchalik safarlaridir.

Zamonaviy texnika vositalari harakatlanish xarakterini tubdan o'zgartirib, xohlagan vaqtda sayohat qilish imkonini berishi mumkin. 1815 yilgi manbalarda Fransiya – Angliya o'rtasida maxsus turlar tashkil qilinganligi yozilgan . Yozuvchi va sayohatchi D.Galiniani keng omma uchun Parijdan Londonga uyushtirilgan bunday turlarning tashabbuskori bo'lgan. 1829-yilda K.Bayedeker tomonidan sayohatchilar uchun maxsus yo'l ko'rsatkich tayyorlanib chop qilingan bo'lib,u hozirgi kunda ham Yevropa bo'ylab sayohat qiluvchi turistlar o'rtasida keng tarqalgan.

Janubiy Sharqiy Osiyodan O'rta yer dengizi mamlakatlarigacha cho'zilgan "Buyuk Ipak Yo'l" deb nom olgan savdo-sotiq yo'li bir necha asrlar davomida zaminning G'arb va Sharqida istiqomat qilgan xalqlarni bog'lab turar edi. Bu yo'lga "Ipak Yo'li" deb nom berilishining asosiy sababi shuki, bu yerdan tashiladigan mahsulotlarning ASOSIY QISM:i ipakdan iborat bo'lgan. Ipak tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan sirni Xitoy ustalari ming yillar davomida odamlardan yashirincha sir tutib kelgan edilar. Ammo "Buyuk Ipak Yo'li" orqali tashilgan mahsulotlar ipakdangina iborat bo'lmay, balki bu yo'l orqali chinni, jun hom-ashyolari va ulardan tayyorlangan buyumlar ham

tashildirdi. “Buyuk ipak yo’li” ikki ming yillik tarixga ega. Bu yo’l asosan Italiyadan Turkiya orqali Iroq va Eronga borgan, u yerdan esa Markaziy Osiyoga hamda Shimoliy Pomir orqali Qashqar va Yorkentgacha borgan. Bu yerdan yo’l ikkiga ajragan hamda shimol tomondan Takla-Makon sahrosini aylanib o’tib Lobnor ko’li yaqinida yana qo’shilgan va Shanxaygacha borgan.

Buyuk Ipak Yo’lida Movarounnahr hududi yetakchi rolni bajarib kelgan. Buyuk Ipak Yo’lida joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Xo’jand kabi kator shaharlar asosiy manzillar bo’lishgan.

Umuman texnika taraqqiyoti ommaviy turizmning rivojlanishiga katta turtki bo’ldi. 1830-yilda jahonda birinchi temir yo’l Manchester va Liverpool o’rtasida ishga tushib, u amalda sayohat uyushtirishning vaqt chegaralarini o’zgartirib yubordi. Ilgari haftalab davom etgan sayohatlarni endilikda arzimagan haqto’lab amalga oshirishhar bir kishining qo’lidan keladigan bo’lib qoldi. Temir yo’llar qurilishi jahonning barcha mamlakatlarida misli ko’rilmagan darajada rivojlanib ketdi. 1833-yilda Rossiyada Cherepanovning birinchi parovozi qurilgan bo’lsa, 1842-yilda Angliyada temir yo’l orqali yo’lovchi tashish 23 mln. kishiga yetgan edi. 1850-yilga kelib AQSHda 15 ming chaqirimli temir yo’llar qurilib ishga tushirildi. 1899-yilda Toshkentda birinchi temir yo’l Krasnovodsk – Toshkent va keyinchalik esa Toshkent – Orenburg (1905) yo’nalishida ishga tushirildi.

Bugungi kunda zamonaviy turizm asoschisi deb tan olingan baptist ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda birinchilardan bo’lib sayohatchilarning ommaviy safari foydaliligini anglab yetib o’z qavmlari bilan (570 kishidan iborat sayohatchi) temir yo’l orqali turistik sayohatni tashkil etib muvaffaqiyatga erishgan edi. 1851-yilda Kukmamlakatning barcha burchagidan kelgan inglizlarning Parijdagi ko’rgazmada ishtirok etishini ham tashkillashtirib, 165 ming kishini olib kelishga musharraf bo’ldi. Ko’rgazma turlari juda katta foyda keltirganligi sababli, 1855-yilda Kuk angliyalik turistlarning Parijda Butun jahon ko’rgazmasidagi ishtirokini ham tashkil etdi. 1856-yilga kelib Yevropa davlatlarida ko’rgazma turlari odatiy holga aylanib, joylarda Kukning turistik agentligi va uning filiallari faoliyat ko’rsata boshlagan edi. Kuk turistik kompaniyasining misli ko’rilmagan darajadagi muvaffaqiyatini biz 8 mingdan ortiq turistik mehmonxonalarning katalogdan o’rin olganligida ham ko’rishimiz mumkin. Shunday kilib, 1870-yilda “Tomas Kuk” turistik firmasining mijozlari soni 1 mln. kishiga yetgan edi.

1832-yilda Yevropa va Amerika qit’alari o’rtasida muntazam kema qatnovlari yo’lga qo’yilgan bo’lib, 1866-yilda Kuk AQSHga turistlarning dastlabki ikki guruhini jo’natgan edi. Turlar uzoq muddatli bo’lib, besh oygacha davom etgan. Tomas Kuk xizmatlaridan foydalangan amerikalik taniqli sayyohlardan biri Mark Tven bo’lib, u oltmish kishidan iborat guruh tarkibida ishtirok etib, keyinchalik bu sayohatni ta’riflab yozgan edi. 1872-yilda Tomas Kuk jahon bo’ylab 220 kunlik turistik (20 kishilik) sayohatni uyushtirdi. Tomas Kuk 1892 yilda vafot etgandan so’ng uning ishlarini o’g’illari va sheriklari davom ettirishgan. Kompaniya o’z faoliyat sohasini kengaytirib, yirik moliyaviy institutga aylanib turistik sayohatchilar uchun yo’l cheklarini ham chiqara boshlagan. Bu esa o’z mohiyatiga ko’ra asr ixtirosi – xavfsiz pullar edi. Hozirgi kunda “Tomas Kuk” kompaniyasi butun dunyoda 12000 dan ortiq turistik agentliklarga ega bo’lib, yiliga 20 mln.dan ortiq turist-sayyohlarga xizmat ko’rsatib kelmoqda.

Zamonaviy samolyotlarning ixtiro kilinishi bilan havo transportida bir mamlakat hududidan ikkinchi bir davlatning hududiga yetib borish imkoniyati vujudga keldi. Natijada sayohatchi turistlar boshqa soat mintaqalariga ko’plab tashrif buyura boshlashdi. Kosmik turistik sayohatlarda esa vaqt samarasi yanada yaqqol ko’zga tashlanadi.

Sayohatlardan hayotiy faoliyatning alohida jozibador usuli sifatida yangi shakl – turizm ajralib chiqib, u o’ziga xos xususiyatlar va xislatlari bilan tavsiflanadi. Turizmning sayohatlardan ajralib turuvchi asosiy jihatlarini bizuning tashkiliy jihatdan yo’lga qo’yilganligida, shuningdek, maqsadli va ommaviy turistik sayyohlikning rivojlanib borayotganligida ko’rishimiz mumkin.

Boshqa odamlardan ajralib turish, birinchi bo’lish istagi sayohatchilar orasida yaqqol ko’zga tashlanadi. Inson faoliyatining boshqa sohalariga qaraganda bunda o’zini ko’rsatish imkoniyati ko’proqdir. Kim eng yuqori cho’qqiga chiqadi va uzoqroqqa boradi, kim kishilar

xayoliga kelmagan va hayron qoldiradigan ishlarni qiladi. Rekordchi-sayohatchilarning fantaziyasi chegaralanmagan bo'lib, Ginnesning rekordlar kitobida bunday yutuqlarga alohida bo'lim ham ajratilgan.

Sayohat va turizmning bir-biridan farqlarini ko'rib chiqishda ushbu faoliyatning maqsadlari va moddiy ta'minotiga to'xtalib o'tish joiz. Sayohat va ekspeditsiyalarning aksariyat qismi ma'lum bir maqsadlarga xizmat qilib, manfaatdor shaxslar, tashkilotlar, davlat va xususiy jamg'armalar tomonidan moliyalashtiriladi. Masalan, Afrikani zabt etib, Zambezi daryosidagi Viktoriya sharsharasini ochgan buyuk David Livingston missionerlik jamg'armalari hisobiga sayohat qilib, asosan mahalliy aholini xristian diniga jalb qilish bilan bir qatorda geografik ixtirolar bilan ham shug'ullanib turgan.

Sayohat-ba'zi hollarda kasbga aylanib, odamlarning kun ko'rish manbai yoki sayohatda ishtirok etuvchilarning kundalik turmush tarziga ham aylanishi mumkin. Shunday sayohatlar ham borki, ularni kasb ham deb bo'lmaydi. Bunday sayohatlar e'tiqod bilan bog'liq. Masalan, Imom Buxoriyni olaylik. U payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislarini to'plash maqsadida Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jidda, Basra, Kufa, Bag'dod, Shom, Misr, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol shaharlarida bo'lib, o'ta mashaqqatli tarzda fidoyilik ko'rsatgan. Bunday misollarni Imom Termiziydan ham topish mumkin. Bahovuddin Naqshbandiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo va boshqa ko'plab sarkarda, alloma va ahli donishlarimizning o'zga yurtlarga o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun borganliklarini ham sayohatlar qatoriga kiritishimiz mumkin. Afsuski, mutaxassislar tomonidan yozilgan biron bir adabiyotda ularning ismi shariflari ko'rsatib o'tilmagan.

Vaqt insonning imkoniyatlarini sezilarli darajada o'zgartirib yuboradi. Bugungi kunda bo'sh vaqt va yetarli mablag'ga ega bo'lgan deyarli har bir shaxs jahon bo'ylab havo sharida yoki boshqa transport vositalarida sayr qilishi va dunyoning inson oyog'i yetmagan nuqtalariga tashrif buyurishi mumkin. Sarguzashtli turizmga ixtisoslashgan turistik firmalar Janubiy Amerika, Afrika va Osiyo bo'ylab maxsus avtomobil transportida uzoq muddatli (30 haftagacha) qit'alararo sayohatlarni, shuningdek, Buyuk yangi yerlarni ochuvchilarning yo'nalishlarini takrorlovchi, narxi 50 ming AQSh dollariga teng bo'lgan 190 kunlik dengiz sayohatlarini ham taklif etmokda.

Xulosa: Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, bizning fikrimizcha, turizm- bu sayohatlarning bir turi bo'lsa-da, odamlarning turli hududlarga tashrif buyurishi bo'lib, unda ishtirok etuvchi shaxs maqsadlari, yo'nalishi va harakatlanish vositalaridan qat'i nazar turist deb ataladi. Sayohatlardan farqli ravishda, turizm iqtisodiyot va siyosatning kuchli ta'siriga tushuvchi toifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kamoldinovna, S. Y. (2024). O 'ZBEKISTONDA TURIZM BOZORINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA SMART MUTAXASSISLIK O'RNI. *Kokand University Research Base*, 529-532.
2. Kamoldinovna, S. Y. (2024). TURIZMDA MAHSULOT VA BOZORNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH. *Kokand University Research Base*, 906-909.
3. Kamoldinovna, S. Y. (2023). TURISTIK MAHSULOTLAR VA XIZMATLAR MOHIYATIGA YONDASHUVLAR VA ULARNI DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI*
4. Sultonova, K. Y. (2023). MATEMATIKANI ZAMONAVIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI. *Interpretation and researches*, 1(8).
5. Husnidaxon, A. (2024). ONLAYN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANADIGAN PLATFORMALAR. *Kokand University Research Base*, 399-402.
6. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
7. Yulduzxon, S. (2021). Muammolar va echimlar Sanoat-4.0 ni joriy etish O'zbekistonda dastur. *Muammolar va echimlar Sanoat-4.0 ni joriy etish O'zbekistonda dastur. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000002).

8. Sultonova, Y. (2023). Turistik xizmatlar va mahsulotlarni diversifikatsiyalashni boshqarishning xorij tajribalari va undan mamlakatimiz amaliyotida foydalanish uslubiylari. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(4), 318-326.
9. Sultonova, Y. (2023). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA UNING INFRATUZILMASINI QO'LLAB-QUVVATLASHNI O'RGANISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 2(2), 101-104.
10. Yulduzxon, S. (2022). Six key principles for effective teaching of mathematics: Six key principles for effective teaching of mathematics. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000006).
11. Kamoldinovna, S. Y. (2022). TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQARISHNI KLASSTER USULIDA TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(5), 309-314.
12. Kamoldinovna, S. Y. (2024). OLIY O 'QUV YURLARIDA MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI (TURIZM YO 'NALISHI MISOLIDA). *Kokand University Research Base*, 533-535.
13. Umidjon, J. (2024). MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI. *University Research Base*, 273-276. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/514>

BARQAROR IQTISODIY O'SISH OMILI SIFATIDA SHAHARSOZLIK VA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION STRATEGIYALAR

Abdullajonov Davronjon

Qo'qon universitetining

Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi

abdavron94@gmail.com

Aliqulov Azizxon

Qo'qon universiteti

"Iqsodiyot" yo'nalishi magistranti. tel: [976373333](tel:976373333)

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror iqtisodiy o'sish omili sifatida shaharsozlik va turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsion strategiyalar tahlil qilinadi. Zamonaviy shahar infratuzilmasini rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan investitsiya modellarining samaradorligi o'rganiladi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion moliyalashtirish usullari va global tajribalar asosida investitsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shaharsozlik va turizm orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda investitsion strategiyalarning o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Shaharsozlik, turizm, investitsiya, strategiya, iqtisodiy o'shish.

Аннотация: В статье анализируются инвестиционные стратегии, направленные на развитие городского развития и туризма как фактора устойчивого экономического роста. Будет изучена эффективность инвестиционных моделей, направленных на развитие современной городской инфраструктуры, обеспечение экологической устойчивости и повышение туристического потенциала. Будут также рассмотрены пути успешной реализации инвестиционных проектов на основе государственно-частного партнерства, инновационных методов финансирования и мирового опыта. Результаты исследования включают научно обоснованные рекомендации, направленные на выявление роли и значения инвестиционных стратегий в обеспечении экономической устойчивости посредством развития городов и туризма.

Ключевые слова: Городское планирование, туризм, инвестиции, стратегия, экономический рост.

Abstract: This article analyzes investment strategies aimed at the development of urban development and tourism as a factor of sustainable economic growth. The effectiveness of